
QO'SHTEPADA "YASHIL MAKON" UMUMMILLIY LOYIHASI DOIRASIDA ISHLAR QIZG'IN DAVOM ETMOQDA



Qo'shtepa tumanida ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlarini ko'zda tutuvchi "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ishlar qizg'in davom etmoqda.

Ushbu loyihani amalga oshirish maqsadida sektor rahbarlari, mas'ul korxonalar va tashkilot xodimlari, nuroniylar, yoshlar va keng jamoatchilik vakillari "dolzarb 40 kunlik" daraxt ekish aksiyasida faol va uyushqoqlik bilan qatnashmoqdalar.

Bugun Qamishtepa mahalla fuqarolar yig'ini, Serquyosh ko'chasi, 50-uyda yashovchi yakka yolg'iz fuqaro A.Raxmatullayevning xonadoniga tuman hokimi I.Novikov va tuman hokimining o'rinbosari, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i Z.Kamilovlar ishtirokida 100 tup uzum ko'chati ekib berildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2021-11-15 19:25:12